O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
ELLIKQAL’A TUMANI
HOKIMI QARORI

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ
QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ
ELLIKQALA RAYONÍ
HÁKIMI SHESHIMI

2022 - yil 26 - yanvar 25-13-194-Q/22 Ellikqal’a tuman hokimligi

Tumanda 2022-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

Tumanda 2022-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekistan Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda – Nizom) muvofiq transport vositalarining 2022-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2022-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi

xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1 mart - 30 iyunda;

ikkinchi marta – 1 sentabr - 31 oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvar – 31 dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stantsiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M 1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga

texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimining 2021-yil 15-fevraldagi “Ellikqal’a tumani hududidagi barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarga tegishli bo‘lgan avtotransport vositalarini va tirkamalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 56/2-sonili qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari A.Qurbanbaev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Avezov S. S.**

Элликқалъа туман ҳокимининг
2022 йил 26 январдаги
25-13-194-Q/22-сон қарорига
1-илова

Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi

T A R K I B I

N.Allamov		Ellikqal’a tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i, mayor
Komissiya a’zolari:		
Lavozimi bo‘yicha	-	Ellikqal’a tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi guruhi ma’muriy huquqbuzarliklar materiallarini ko‘rib chiqish bo‘yicha inspektori
T.Sheripov	-	Ellikqal’a tumani hokimligining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiya va kommunal xo‘jaligi masalalari bo‘yicha bosh mutaxassisi
N.Abaev	-	Ellikqal’a tumani Davlat soliq inspektsiyasi boshlig‘i
M.Rozumov	-	Ellikqal’a tumani moliya bo‘limi mudiri
Z.Nurmetova	-	««DAVR KO‘ZGUSI» gazetasi muxarriri
K.Mirzaqulov	-	Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologiya va atrof muxitni muhofaza qilish qo‘mitasining Ellikqal’a tumani inspektsiyasi boshlig‘i
Komissiya kotibi:		
B.Bekbergenov	-	Tuman ichki ishlar bo‘limi YHXB katta inspektori

***

Элликқалъа туман ҳокимининг
2022 йил 26 январдаги
25-13-194-Q/22-сон қарорига
2-илова

Ellikqal’a tumanida jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan transport vositalarning 2022 yilgi majburiy texnik ko’rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

№	Tashkilot, korxona xo‘jalik va muossasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rikdan o‘tkaziladigan joy	Transportlar soni
A	1	2	3	4	5
1	Hokimyat	04.04.2022	17:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	9
2	Ellikkal’a davlat urmon xujaligi	05.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
3	Ellikkal’a tumani IIB	05.09.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
4	OOO Taxiatashskaya neftebaza	06.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	22
5	Uykal’a MCHJ	06.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	7
6	MCHJ "BOSTON ABSOLYUT FARM"	06.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
7	Buston Kamol dexkon xujaligi	06.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
8	Jurabek Meva Bogi D/X	07.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
9	ELLIKKAL'A TXI SHAROBSAVDO BAZASI	07.04.202	10:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
10	Buston diyori charvosi	07.04.2022	10:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
11	Jumaboy Buston DX	08.04.2022	11:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	2
12	Kirkkizabod yuli XK	08.04.2022	11:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	2
13	Akchakul savdo	08.04.2022	11:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	3
14	Burgutkal’a Saodati FX	09.04.2022	17:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	17
15	Ellikkal’a maxsus suv pudrat MCHJ	11.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	8
16	Islombek Erkinovich DX	12.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
17	Ellikkal’a ATK-20 MCHJ	12.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	24
18	Reyimbaytrans MCHJ	16.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	5
19	Nurmamat Kurbanov FX	16.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	2
20	Uykal’a MCHJ	16.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	8
21	Bustontransservis MCHJ	17.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	15
22	Mirziyo Avto plyus XK	17.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1

23	Ellikkal’a taksi trans MCHJ	20.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	3
24	Ukuv Spart Texnika Klubi	22.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	15
25	Buston obod maxsus kurilish XK	25.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	13
26	Akmal Zoxid DX	30.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	2
27	Jandos Kuruvchi MCHJ	30.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	4
28	Xamid FX	30.04.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	2
29	Tuprokkal’a Maksus Kurilish MCHJ	04.05.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	8
30	Buston tyulpan FX	02.05.2021	17:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	2
31	Umidbek Odilbek MCHJ	02.05.2022	17:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	3
32	Fayz baraka maxsus qurilish MCHJ	03.05.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	3
33	Ayazkal’a maxsus kurilish MCHJ	04.05.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	6
34	Sherzod Bustoni DX	04.05.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	2
35	Supper mix real	05.05.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
36	Uzavtosanoat lizing	18.05.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
37	Maktabgacha ta’lim	20.05.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	3
38	Buston Kamol DX	20.05.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
39	Xozmak-Trade MCHJ	20.05.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
40	Ellikkal’a tumani Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi	21.05.2022	11:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	3
41	"MEDI-UM ENERGY STREAM" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI	21.05.2022	10:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
42	OOO "BUSTAN-BUILD"	21.05.2022	10:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
43	FX TAYDAN	25.05.2022	10:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
44	ELLIKKAL'A MTB	23.05.2022	10:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
45	Baxoroy FX	23.05.2022	10:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	3
46	OOO "BUSTAN-BUILD	26.05.2021	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
47	saxinur ziyo Mchj	26.05.2021	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
48	ELLIKKALINSKIY SPETS.AKTSIONER. KOMMERCH. AGRO BANK	30.05.2022	11:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
49	Buston Ikboli	3.06.2022	10:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
50	ELKO‘CHAT MEVA	05.06.2022	10:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1

51	ELKUCHAT MEVA MCHJ	05.06.2022	10:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
52	CHASTNOE PREDPRIYATIE "STF"	05.06.2022	10:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
53	"BOBUR TO LQIN SHAXNOZA" MAS ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI	05.06.2022	10:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
54	Akchakul savdo MCHJ	07.06.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
55	MCHJ "BOSTON ABSOLYUT FARM"	07.06.2022	09:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
56	ELKOCHAT MEVA MCHJ SHAKLIDAGI AGROFI	08.06.2022	11:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
57	Navruz MCHJ	09.06.2022	10:00	ЎзР ВМнинг 9.03.2021 йилгии 125-сон қарори асосида шартнома бўйича	1
	Jami				**226**